

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 94(575.1):316.34

XX ASR 20 – 50-YILLARIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLARINING B.AHMEDOV HAYOTIDA AKS ETISHI**THE REFLECTION OF SOCIO-ECONOMIC PROBLEMS OF THE 1920–1950 IN THE LIFE OF B.AKHMEDOV****ОТРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ 1920–1950 ГОДОВ В ЖИЗНИ Б.АХМЕДОВА****Rahmonberdiyev Feruz Mahmudjon o'g'li**
Farg'ona davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekistonda tarixshunoslik va manbashunoslik fanlarining rivojlanishida muhim o'rin tutgan akademik Bo'riboy Ahmedov (1924–2002)ning bolalik va yoshlik yillaridagi mashaqqatli hayot yo'li yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, olimning bolalik davri Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixida sovet hokimiyatining “Yangi iqtisodiy siyosat” (1921–1928) hamda “Yer-suv islohoti” (1921–1929) deb nom olgan jarayonlariga to'g'ri kelgan. Uning o'smirlik yillari Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) davrida, bevosita frontda kechgan bo'lsa, yoshlik davri urushdan keyingi og'ir iqtisodiy sharoitda o'tgan. Maqolada ushbu jihatlar olimning shaxsiy arxividagi hujjatlar asosida tahlil qilinadi.

Abstract

This article highlights the challenging early life of Academician Buriboy Akhmedov (1924–2002), who played a significant role in the development of historiography and source studies in Uzbekistan. Research indicates that his childhood coincided with the Soviet government's implementation of the “New Economic Policy” (1921–1928) and the “Land and Water Reform” (1921–1929) in the countries of Central Asia. His adolescence took place during the Second World War (1939–1945), where he served directly at the front, while his youth passed under the difficult economic conditions of the post-war period. The article examines these aspects based on documents preserved in the scholar's personal archive.

Аннотация

В данной статье освещён трудный жизненный путь академика Бурибая Ахмедова (1924–2002), сыгравшего важную роль в развитии историографии и источниковедения в Узбекистане. Исследования показывают, что детские годы учёного пришлись на период проведения в странах Средней Азии “Новой экономической политики” (1921–1928) и “Земельно-водной реформы” (1921–1929) советской власти. Юношеские годы Ахмедова совпали с периодом Второй мировой войны (1939–1945), где он находился непосредственно на фронте, а молодость пришлась на тяжёлые послевоенные годы. В статье данные аспекты рассматриваются на основе документов из личного архива учёного.

Kalit so'zlar: akademik Bo'riboy Ahmedov, bolalik va yoshlik yillari, arxiv hujjatlari, “Yangi iqtisodiy siyosat”, “Yer-suv islohoti”, Ikkinchi jahon urushi, qatag'on, ta'lim, maktab.

Key words: Academician Buriboy Akhmedov, childhood and youth years, archival documents, “New Economic Policy”, “Land and Water Reform”, Second World War, repression, education, school.

Ключевые слова: академик Бурибой Ахмедов, детские и юношеские годы, архивные документы, «Новая экономическая политика», «Земельно-водная реформа», Вторая мировая война, репрессии, образование, школа.

KIRISH

“Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadi ilgari surilgan bo'lib, bu yo'nalishda O'zbekiston tarixini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan Respublikamizda milliy tarixni birlamchi manbalarga tayangan holda xolisona tadqiq etish borasidagi ishlar jadallashdi. Mazkur jarayonda yurtimiz tarixiga oid XX asrda yaratilgan tarixiy tadqiqotlarni kompleks tarzda o'rganish, ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etish muhim ilmiy vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Ayni jihatlar, bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifasi sifatida tarix fanlarining yirik tarmoqlari rivojida muhim o'rin tutgan akademik Bo'riboy Ahmedov (1924 – 2002) faoliyati va ilmiy

maktabini chuqur o'rganish, olim tadqiqotlarida qo'llangan metodologik yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularni zamonaviy tarixshunoslik talablari asosida ilmiy baholashni taqozo etmoqda.

O'zining ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston tarixiga oid qator muhim asarlar yaratgan olim hayoti turli qiyinchiliklarga boy bo'lgan. Bu kabi murakkabliklar ayniqsa uning yoshlik yillarida uzluksiz yuz bergan. Shunga qaramay ayni davr B.Ahmedovning kelajakda yirik tarixchi sifatida shakllanishida o'ziga xos tayyorlov bosqich bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid hozirga qadar yaratilgan ishlar asosan olimning shaxsiy fazilatlarini, mehnat va ilmiy ijodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari xususida umumiy ma'lumot beradi. Ular hajman cheklangan va aksar hollarda publisistik uslubda bo'lsa-da, B.Ahmedov zamondoshlari, shu jumladan, olim bilan bevosita aloqada bo'lgan hamkasblari va shogirdlari tomonidan yozilgan bilan muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Bu borada, sovet davrida yaratilgan A.Ishanov, A.Muhammadjonov, Y.Soliyev, O.Borisov, A.Madrahimov, M.Ali, M.Bobohojayev va M.Yunushojayeva, D.Yusupova, H.Ziyoyev ishlari [1] alohida o'rin tutadi. Ularda B.Ahmedovning hayoti va Ikkinchi jahon urushi yillaridagi zahmatlari, manbashunos va sharqshunos bo'lib etishish jarayoni yoritilib, olimning XX asrning 60 – 80-yillarida chop etilgan ilmiy asarlari qisqa tarzda tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida akademik B.Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatiga doir bir qator ishlar e'lon qilindi. K.Norqulov, A.Samad, K.Normatov, T.Hojamberdiyev, M.Ali, S.Jo'rayev, D.Yusupova maqolalari va boshqa ishlarda [3] B.Ahmedov mehnat va ilmiy faoliyatining asosiy jihatlari umumiy tahlil etilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'riboy Ahmedov 1924-yil 12-avgustda Andijon viloyatining Voroshilov (hozirgi Qo'rg'ontepa) tumaniga qarashli Ilichevsk (hozirgi Qorasuv) qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ahmadxon Tojixojayev, onasi Rohila Kamolxonova bo'lib, ular 4 nafar farzandlarini qiyin sharoitda tarbiyalab, ulg'aytirishgan. Ahmadxon Tojixojayev to'ng'ich o'g'liga Bo'rixon, ikkinchi farzandiga Jo'raxon, qiziga Oyazimxon va kenja farzandiga Xolmuhammadxon, deb ism qo'ygan edi. Shaxsiy arxiv materiallari ichidagi olim bilan yozib olingan vediotasmalardagi suhbatlarda hamqishloqlari uni Bo'rixon, deb atashganini ta'kidlaydi. Mahalliy an'analardan ma'lumki, xo'ja yo said avlodga mansub odamlarning ismiga "xon" qo'shib aytish xalqimiz odatlaridan biri hisoblanadi. Olim o'z avlodlari asli Jalolobodlik ekanligini ta'kidlab, shajarasi o'rta asrlarda sharqiy Turkiston o'lkalarida yashab o'tgan davlat arbobi va din peshvosi Ofoqxo'jaga borib taqalishini [10] qayd etadi.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, ayni ko'rib o'tilayotgan XX asrning 20-yillarida O'rta Osiyoda sovet hokimiyati tomonidan "Yangi iqtisodiy siyosat" (1921 – 1928) va "Yer-suv islohoti" (1921 – 1929) amalga oshirilayotgan edi. Oziq-ovqat razvyorkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish bilan boshlangan NEP (новая экономическая политика), ya'ni yangi iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan asosiy maqsad savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoat, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat berish, ijara va yollanma mehnatni cheklashni bekor qilishdan iborat [7: 179] edi. Soha mutaxassislarining fikricha, bu maqsadlar hukmron sovet mafkurasining mohiyatiga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay ijtimoiy-iqtisodiy hayotda biroz yuksalishga asos bo'lgan.

Mintaqada xususiy er mulkchiligini tugatish, agrar munosabatlarni tubdan o'zgartirish va sovet iqtisodiy tizimini joriy qilishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar majmuasi sifatida tarixga kirgan Yer-suv islohoti esa ikki asosiy bosqichda amalga oshirilgan. Bunda birinchi bosqich (1921–1922-yillar) Turkiston ASSR hamda Qozog'iston ASSR hududlarida olib borilgan bo'lsa, ikkinchi bosqich (1925–1929-yillar) O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanishdan keyin amalga oshirilgan [7: 182].

Islohotning asosiy maqsadi mehnat bilan shug'ullanmaydigan yirik er egaliklarini tugatish, er resurslarini ersiz va kam erli dehqonlar, batraklar va chorakorlar o'rtasida qayta taqsimlash, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davridagi Stolipin (1862 – 1911) islohotlari doirasida Turkistonga ko'chirib kelingan rus aholisining erlarini tortib olish orqali eski mustamlaka tizimining qoldiqlarini bartaraf etishdan iborat edi [7: 182].

Amaliy jihatdan islohot 1921-yil bahoridan boshlanib, avvalo Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari hamda Qozog'istonning Oqmo'la, Ural va Semipalatinsk guberniyalarida o'tkazildi. Yerlarni

TARIX

musodara qilish, jumladan, vaqf erlarini tortib olish ham, ma'muriy majburlash va tazyiq yo'li bilan amalga oshirilgan. Buning oqibatida jiddiy qarshilik harakati yuzaga keldi va Sovet hokimiyatiga qarshi qator ommaviy norozilik namoyishlari va qo'zg'olonlar boshlandi. Tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanishicha, ushbu islohotning dastlabki bosqichi siyosiy vaziyatni keskinlashtirib, mintaqadagi ijtimoiy barqarorlikka jiddiy putur etkazgan [7: 183].

Yer tuzish jarayonida tashkil qilingan fondga jami 1 722 626 desyatina yer kiritilib, mahalliy aholiga uning faqat 600 ming desyatini ajratildi. O'zbek aholisi uchun esa bundan atigi 117 512 desyatina yer ekin ekish va yaylov sifatida foydalanishga topshirildi [7: 183]. Ushbu vaziyat mahalliy dehqonlar orasida sovet hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini kuchaytirdi.

1925–1929-yillarda o'tkazilgan islohotning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Kompartiyasi 2-syezdi qarori bilan rasman boshlangan bo'lib, asosiy e'tibor boy-quloq sifatida tasniflangan guruhlarini tugatishga qaratildi. Bu bosqichda, davlat tomonidan olib qo'yilgan 474 893 desyatina yerlarning atigi 10 foizi kam quvvatli xo'jaliklar tomonidan foydalanishga topshirildi. Umumiy hisobda, ushbu islohot jarayonida 6763 boy-quloqning mulki musodara qilindi, 37 759 ta badavlat xo'jaliklarning yer mulklari keskin qisqartirilib, jami 415 500 desyatina yer 123 400 nafar yersiz va kam yerli dehqonlar o'rtasida qayta taqsimlandi [7: 334].

Shunday qilib, O'rta Osiyodagi yer-suv islohoti Sovet hokimiyatining agrar sohadagi monopoliyasini mustahkamlab, mintaqada kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy asos yaratdi. Biroq tadqiqotchilar qayd etganidek, mazkur jarayon mahalliy aholi turmush tarziga, iqtisodiyotiga va madaniyatiga bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatli ijtimoiy ziddiyatlarga ham sabab bo'lgan.

Qayd etish lozimki, 1924-1925-yillarda qishloq xo'jaligida o'lkaning mehnatga layoqatli bo'lgan aholisining 85 foizi band bo'lgan [7: 326]. Ayni shu davrlarga kelib o'zbek qishloqlarida ijtimoiy-iqtisodiy jabhada aniqrog'i, aholining turmush darajasi birmuncha ko'tarildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ana shunday tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida Ahmadxon Tojixojayevga ikki tanob yer olib, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullandi. Ammo Yangi iqtisodiy siyosat va Yer-suv islohoti natijasida erishilgan qishloq aholisi turmushdagi biroz yuksalish, 1930-yildan boshlangan navbatdagi "kollektivlashtirish", ya'ni "jamoalashtirish" nomini olgan yangi siyosat oqibatida yana orqaga keta boshladi. A.Tojixojayev ham ixtiyoriy-majburiy ravishda kolxozga a'zo bo'lib, mol-holi va tomorqasini kolxozga topshirib, umumdalada mehnat qilishga majbur bo'ldi. Jamoalashtirish qishloq xo'jaligi va chorvachilikka juda og'ir zarar yetkazib, g'alla yetishtirish keskin kamayishi natijasida 1917 – 1924-yillarda bo'lgani kabi respublikada ocharchilikning yangi kichik to'liqini (1933) boshlandi [7: 357].

Kolxoz a'zo bo'lish orqali oilaviy hayotini biroz farovon qilishni niyat qilgan A.Tojixojayev kolxozchining oladigan kam miqdordagi mehnat haqi sabab uzoq vaqt o'z noroziligini yashirib yurgan. Biroq kunlarning birida og'ir mehnat azobida noroziligini kolxozchilar orasida ochiq aytilishga majbur bo'ladi. Onasining xotiralari asosida Bo'riboy Ahmedov bu voqelikni quyidagicha eslaydi: "kolxozchining oladigan mehnat haqi nosvoy puliga ham etmas, ta'minot esa inchunin. Kunlardan bir kuni otam qora mehnatdan zerikib, jonidan to'yadi-yu, "Ey, o'sha, kolxozni chiqarganni..." deb chaparasta qilib so'kib qoldi. Xufiyalar bu gapni tegishli joyga yetkazgach, otamni o'sha kunning o'zida olib ketishdi" [10].

Olimning shaxsiy arxiv hujjatlari tahlili bu voqea 1937-yil 28-noyabr kuni sodir bo'lganligidan dalolat bermoqda. B.Ahmedov o'z xotiralarida shu voqeadan so'ng otasi to'g'risidagi so'rab-surishtirishlar uzoq vaqt hech qanday natija bermaganligini qayd etib, faqatgina 1989-yilning iyun oyiga kelib uning taqdiriga oid rasmiy xat olganligini qayd etadi. Mazkur xat bugungi kunda B.Ahmedov shaxsiy uy arxivi hujjatlari to'plamidan o'rin olgan bo'lib, uning tahlili quyidagi ma'lumotlarni yuzaga chiqarmoqda. Birinchidan, A.Tojixojayev 1884-yilda tavallud topgan va Andijon viloyatining o'sha vaqtdagi Voroshilov (hozirgi Qo'rg'ontepa) tumanidagi Kuybeshov nomli kolxoz a'zosi bo'lgan. U SSSR NKVD uchligining 1937-yil 8-dekabrda suddan tashqari qarori bilan qurilish otryadida ishlash uchun Rossiyaning Yevropa qismidagi Yaroslav viloyati Uglich shahriga surgun qilingan. Xatda A.Tojixojayevning vafot sanasi sifatida 1942-yilning 16-may ko'rsatiladi. Muhim jihati, Uglich shahrida og'ir mehnat va ochlikdan halok bo'lgan A.Tojixojayev SSSR Oliy sudi 1989-yil 1-yanvardagi qaroriga asosan shu yilning 29-may sanasida sirdan oqlangan.

Qiyosiy tahlil uchun O'zbekiston tarixining ayni davriga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarga asoslanadigan bo'lsak, 1935-yilda respublikada kolxozlarning umumiy daromadi 347,7 mln tashkil

etgan, 1937-yilga kelib bu ko'rsatkich 2190 mln so'mni tashkil qilgan. Bir kunlik mehnat haqqi ham shunga mos ravishda o'sib borib, 1933-yilda 75 tiyinni tashkil etgan bo'lsa, 1937-yilda 4 so'm 15 tiyinga etgan [7: 366]. Biroq mehnat kunlariga yoziladigan umumiy pul miqdori A.Tojixo'jayev kabi ko'p bolali dehqon oilalarining yashashi uchun kerak bo'ladigan eng kam miqdordagi mablag'ni ham ta'minlay olmagan. Bundan tashqari, 1937-yilda respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 42,3 foizida qo'shimcha daromad manbai bo'lmish tomorqa uchastkalari mavjud bo'lmagan [7: 367]. A.Tojixo'jayev oilasi ham ana shunday yordamchi xo'jalik hisoblangan o'z tomorqasiga ega emas edi.

Otasining siyosiy repressiyaga uchrashi tufayli yosh Bo'riboyning hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu voqea uning shaxsiyati va kelajak taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan. Bo'riboy Ahmedovning maktabdagi ilk yillari qiyinchiliklarga to'la bo'ldi. Uning bolaligi Qorasuv qishlog'ida mashaqqatli mehnat bilan o'tdi. Ammo u barcha qiyinchiliklarga qaramay, ilmga chanqoqlik bilan o'qishni davom ettirdi. Biroq sovet hukumatining olib borgan siyosati natijasida "xalq dushmani"ning oila a'zolari ham turli bosimlarga uchragan. Ular qatorida, o'n uch yoshida otadan tirik etim qolgan Bo'riboy ham tengqurlari va qishloqdoshlari tomonidan kuchli ruhiy bosimga uchraydi. Olim yoshlik xotiralarida, maktabdagi ta'lim vaqtida "xalq dushmani"ning o'g'li sifatida darslarda partada bir o'zi o'tirishga majbur bo'lganligini [5: 24] kuchli og'riq bilan eslaydi.

B.Ahmedovning dastlabki ta'limni olishida uning onasi Roxilaposhsha Kamolxonova muhim rol o'ynagan. Aynan u to'ng'ich o'g'lining ilmga bo'lgan zehni birinchilardan bo'lib sezib, uni har turdagi og'ir mehnatlardan imkon qadar xoli qilishga urinib, ilmga yo'naltirgan edi. Roxilaposhsha aslida andijonlik eshonlar avlodidan bo'lib, Sayidkamolxo'ja eshon va Poshshaxon oyimlarning 3-farzandi bo'lgan. Uning ikki akasi, singlisi va bir ukasi bo'lgan. Bular: katta akasi Dadaxon oqsoqol, kichik akasi Yusufxon eshon, singlisi Ulfatxon oyim va kenja ukasi Yunusxo'ja eshon. B.Ahmedov o'z xotiralarida kenja tog'asi Yunusxo'ja eshonni Sobirxo'ja eshon, deb ham yodga oladi. Aynan mana shu Sobirxo'ja eshon jiyani Bo'riboyning kelajakda yirik tarixchi va manbashunos olim bo'lib etishishida muhim o'rin tutadi [4: 476].

Ta'kidlanishicha, Sobirxo'ja eshon juda ilimli shaxs bo'lib, katta miqdordagi qo'lyozmalari mavjud bo'lgan shaxsiy kutubxonasiga ega bo'lgan. Bir o'zi hayot kechiruvchi va erta tongdan kechga qadar faqat ilmiy mutolaa va qiroat bilan mashg'ul bo'lgan eshon tog'asiga Bo'riboy o'zining maktab ta'limi va kundalik xo'jalik ishlaridan bo'sh vaqtida ko'maklashib, unga g'amxo'rlik qilgan. Ayni shu davrda boshlab, u tog'asidan arab va fors tillari bo'yicha dastlabki saboqni oladi. Hatto forsiy matnlarni o'qish va tarjima qilish darajasiga erishadi. 1996-yilda bergan intervyusida olim tog'asining ko'p sonli kutubxonasidagi katta hajmli kitob uni doimo e'tiborini tortgani va uni o'qib, nima haqida ekanligini bilishga qiziqqanligini aytadi. Til ko'nikmalari shakllangach bu asar mashhur muarrix Mirhondning (1433 – 1498) "Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa" ("Payg'ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i") nomli asari ekanligini bilib olgan. Ana shu tarzda B.Ahmedov hayotining keyingi bosqichlaridagi eng muhim yo'nalish hisoblangan fors tilidagi manbalarni o'rganish va tarjima qilishga ilk tamal toshi qo'yiladi.

B.Ahmedov 1940-yili 8-sinfni bitirgach, Andijon shahridagi pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi. 2-kursga o'tgan yili, ya'ni 1941-yilda SSSRni Ikkinchi jahon urushiga kirishi oqibatida, bilim yurti o'qituvchilarining frontga olinishi sabab, o'qishini Andijon o'qituvchilar institutida ochilgan bir yillik "Predmetniklar" kursiga ko'chirishga majbur bo'lgan [6]. Mazkur kurs doirasida til va adabiyot yo'nalishi bo'yicha tahsil olgan B.Ahmedov 1942-yilda uni tamomlab shu yilning 6-iyun sanasidan Voroshilov rayoni Dehqonchek qishlog'idagi etti yillik 21-maktabga o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari hamda til va adabiyot o'qituvchisi sifatida ishga kiradi [9].

Biroq oradan uch yarim oy o'tgach harbiy xizmatga chaqirilib, frontga jo'natiladi. 1953-yil 1-sentyabrda Ahmedov Bo'ri Ahmedovich nomi berilgan 0706025-raqamli mehnat daftarchasida harbiy xizmatga chaqirilish sanasi sifatida 1942-yil 16-oktyabr ko'rsatilgan.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, O'zbekistondan jami 1 mln 951 ming nafarga yaqin kishi Ikkinchi Jahon urushida qatnashgan. Ulardan, 1 mln nafardan ziyodi urushdan yurtga qaytgan bo'lsa, 896 402 nafari qaytmagan. Urushdan qaytganlarning 870 942 nafari turli darajadagi yaralanishlar sabab mehnatga layoqatini yo'qotgan. Ayni davrda Andijon viloyatidan jami 30 898 kishi frontga jalb qilingan [11]. B.Ahmedov ham ana shu andijonliklar qatorida 18 yoshda Ikkinchi Jahon urushidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan.

TARIX

B.Ahmedov sovet armiyasining harakatdagi qo'shini tarkibida dastlab Voronej, keyinchalik birinchi Ukraina frontidagi janglarda ishtirok etgan. Muhim jihati, yosh Bo'riboy frontda o'zining qat'iy intizomi va jasorati sabab tez orada serjant unvoniga erishadi.

Olimning 1996-yilgi intervyusida urushdagi harakatlariga oid muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Jumladan, B.Ahmedov o'zini razvedkada xizmat qilganligini va kunlarning birida nemislar qo'shini orasida juda og'ir jarohat olganligini qayd etadi. Qurolodoshlari uni qiyinchilik bilan SSSR qo'shini tomoniga olib o'tishgan [10]. O'sha kuni, ya'ni 1944-yil 2-mayda B.Ahmedov ikki nafar harbiy jarroh va 1 nafar hamshira ishtirokidagi og'ir operatsiyani boshidan o'tkazadi. Ma'lumotlarga ko'ra, urush vaqtida B.Ahmedov jami o'n bir joyidan og'ir yarador bo'lgan.

Urush yakunida, aniqrog'i 1945-yilda B.Ahmedov kichik leytenant unvoniga ega bo'ldi. Biroq jang maydonida olingan jarohatlar sabab u ikkinchi guruh nogironi bo'lib qoldi. Shu sababdan 1945-yilning 11-aprel kuni harakatdagi armiya safidan chiqarilgan. Qishlog'iga qaytgach chala qolgan o'qishini davom ettirdi. Olimning ta'kidlashicha, maktab ma'muriyati ham endi uning "xalq dushmani"ning bolasi ekanligini go'yo unutib, urush qahramoniga nisbatan katta hurmat ko'rsatgan. Bunga 21 yashar yigitning yelkasida zobitlik pogonlari sabab bo'lgan [4: 11].

Qayd etish lozim, B.Ahmedov harbiy harakatlarida mardonovorligi uchun jami 1 ta orden, 10 ta medal bilan taqdirlangan. Bular: 630292-raqamli "Орден Отечественной войны I степени" ("Биринчи даражали Ватан уруши ордени"), 1943-yildagi 483860-raqamli "За отвагу" ("Jasorat uchun"), 1944-yildagi 3606474-raqamli "За отвагу" ("Jasorat uchun"), 1945-yildagi 3110850-raqamli "За боевые заслуги" ("Jangovar xizmatlari uchun"), 1945-yildagi "За победу над Германией в Великой Отечественной войне 1941–1945 гг." ("1941 – 1945-yillardagi Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun"), "За доблестный труд Великой Отечественной войне 1941-1945 гг." [3: 150-151] ("1941-1945-yillardagi Vatan urushidagi mardona mehnati uchun") kabi medallardir. Ulardan tashqari, B.Ahmedov keyingi yillarda Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 20, 30 va 40 yilligi, shuningdek, SSSR Qurolli kuchlarining 50 va 60 yilligiga bag'ishlangan medallar bilan ham taqdirlangan.

0706025-raqamli mehnat daftarchasiga asoslanadigan bo'lsak, 1945-yil 25-oktabrdagi 86-son buyruqqa muvofiq shu yilning 26-oktabr sanasidan Voroshilov nomidagi 1-son maktabga tarix o'qituvchisi sifatida ishga qabul qilingan.

1948-yil 10-sentabrda berilgan 000121-sonli O'zbekiston SSR Maorif Ministrligining Yetuklik attestatida B.Ahmedov 1948-yilda Kuybeshov nomidagi 1-sonli o'rta maktabni to'liq kursini a'lo xulqi bilan bitirib, SSSR Ittifoqi Xalq Komissarlar Sovetining 1944-yil 21-iyundagi "Maktabda o'qitish sifatini yaxshilash tadbirlari haqida"gi 750-sonli qaroriga asosan kumush medal bilan mukofotlangan [8]. Fanlarni o'zlashtirish jadvalini tahlil qilinadigan bo'lsa, B.Ahmedov deyarli barcha fanlarni, shu jumladan, umumiy tarix, geografiya, SSSR tarixi va konstitutsiyasi, o'zbek tili va adabiyoti, xorijiy va rus tili kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bir qatorda fizika, astronomiya, kimyo, tabiiyot, geometriya, trigonometriya kabi aniq va tabiiy fanlarni ham a'lo bahoga o'zlashtirgan. Faqatgina o'quv rejasidagi algebra fanidan 4 baholik natija qayd etilgan. Shunga qaramay, B.Ahmedov SSSR Xalq Komissarlar Sovetining 1945-yil 30-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "A'lo yutuqlari va namunali xulqi uchun" oltin va kumush medallar haqidagi Nizomning 4-bandiga muvofiq oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirish huquqini qo'lga kiritadi.

B.Ahmedov maktabni bitirgach oliy ta'lim olish uchun harakat boshlaydi. Biroq oilaviy sharoit tufayli, aniqrog'i urushdan keyingi og'ir iqtisodiy sharoitda to'ng'ich farzand sifatida oila ta'minotini o'z qo'liga olish zarurati hamda qishloq maktabida olgan bilimi hali universitetga kirish uchun yetarli darajada emasligi sabab bu reja keyinga qoldirildi. Shunday bo'lsa-da, ayni davrga kelib, u bo'lajak ixtisosligini aniq tanlagan, ya'ni tarixchi bo'lish niyatida edi.

Dastlab u Voroshilov (hozirgi Qorasuv) tumani bosmaxonasida shogird sifatida ishga joylashadi va keyinroq harf teruvchi bo'lib faoliyat yuritadi. 1994-yilda "O'zbekiston ovozi" gazetasiga bergan intervyusida olim o'zining mazkur faoliyati davomida savodxonligi ancha o'sgani va yozuvchizuv ishlarini puxta egallaganligi sabab tumandagi "Paxta uchun kurash" nomli gazetasiga ishga kirganligini ta'kidlaydi. Keyinchalik, 1947-yilning o'rtalariga kelib "Paxta uchun kurash" va qo'shni Oyim tumanidagi "Bolshevik kolxozlar uchun" gazetalarining tahririyatlarida mas'ul kotib bo'lib ishladi. Muxbir sifatida qishloq aholisining kundalik hayoti, urf-odatlar, joy nomlari tarixi, muxtasar qilib aytganda, xalq hayotining barcha masalalarini o'rgandi. Balki, shuning uchun ham keyinchalik O'zbekiston tarixining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixi, shuningdek, o'zbek xalqining shakllanish

masalalari olim ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. B.Ahmedovning matbuotdagi faoliyati uning ilmiy va badiiy yozuv uslubini va umuman bo'lajak olimning dastlabki muhim xususiyatlarini shakllantirdi.

Ikki yillik tayyorgarlikdan so'ng B.Ahmedov 1948-yilda Toshkentdagi O'rta Osiyo davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) Sharq fakultetiga o'qishga kirib, bu yerda tarix hamda sharqshunoslik bo'yicha ta'lim oldi. Ma'lumot o'rnida qayd etish o'rinliki, 1944-yilda qaytadan ta'sis etilgan Sharq fakulteti [12] aslida 1918-yilda tashkil etilgan, 1924-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti qo'shib yuborilib, 1930-yilda Pedagogika fakultetida aylantirilgan va 1931-yilda faoliyati batamom tugatilgan Turkiston sharqshunoslik instituti negizida tashkil etilgan.

Fakultetda o'quv rejasiga asosan Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va iqtisodi, tili va adabiyoti o'qitilgan. 1944 – 1953-yildan fakultetda 4 ta kafedra mavjud bo'lib, ular Eron filologiyasi, Shimoliy Hind filologiyasi, Sharqiy Turkiston filologiyasi, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari tarixi kabi kafedralaridan iborat edi [12]. Ayni vaqtda fakultetda arab, fors, pushtu, hind, urdu, xitoy, uyg'ur, turk tillari bilan bir qatorda ingliz, rus va o'zbek tillarini o'rganishga ham katta ahamiyat berilgan.

B.Ahmedov ham ayni sharoitdan unumli foydalangan holda talabalik yillarida arab, fors, turk tillarini o'rgandi, rus tili bo'yicha malakasini oshirib, ushbu tilda fikrlarini ilmiy uslubda yoza olish darajasiga erishdi. Bu davrda, fakultetda o'z davrining eng mashhur sharqshunos olimlaridan ta'lim oldi. Jumladan, oliygohda o'sha vaqtda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (1943 – 1951) va Tarix, arxeologiya va etnologiya instituti (1951 – 1958) direktori lavozimlarida faoliyat yuritgan mashhur rus sharqshunosi A.A.Semyonov (1873 – 1958) o'rindoshlik asosida dars bergan. B.Ahmedov A.A.Semyonovdan "O'rta Osiyoning XVI – XIX asrlar tarixi", "O'rta Osiyo tarixi manbashunosligi", "Sharq xronologiyasi", "Arab paleografiyasi" kabi fanlardan tahsil oldi. Bu kabi fanlar B.Ahmedovning sharqshunos mutaxassis bo'lib etishishida muhim rol o'ynash barobarida, uning ilmiy tadqiqot xronologiyasini belgilanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Undan tashqari, mazkur fakultetda Abdurahmon Ziyodan umumiy tarix bo'yicha, fakultet dekani bo'lgan A.Hamroyevdan qadimgi tarix, eronlik pedagog T.Toboyidan fors tili va Eron tarixi, S.G'aniyevdan arab tili, V.Zohidovdan falsafa, N.Solodnikovdan esa ingliz tili bo'yicha ta'lim olgan [4: 15-16].

Bo'riboy Ahmedov bilimli va faol talaba sifatida fakultetda e'tibor qozondi va partiya safiga qabul qilindi. Hatto uchinchi kursda fakultet partiya tashkiloti kotibi etib saylanib, 1950 – 1952-yillarda fakultet talabalariga yetakchilik qilgan. 1953-yili universitetni imtiyozli diplom bilan bitirib, yo'llanma asosida o'z qishlog'i Qorasuv maktabiga tarix o'qituvchisi sifatida ishga yuborilgan. Biroq fakultetda professor-o'qituvchilari va talabalari orasida hurmat qozonib, istiqbolli manbashunos va sharqshunos kadr sifatida e'tirof etilishiga qaramasdan oliygohda olib qolinmay, uni chekka tumanga yuborilishining ham o'ziga xos sababi bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, XX asrning 40-yillar oxiri – 50-yillar boshlarida SSSRning qatag'on siyosatining yangi bosqichi boshlandi. Bu bosqichda yozuvchi va shoirlar, tarixchi va faylasuflar, qisqa qilib aytganda, O'zbekistonning ijodkor hamda ilmiy ziyolilari asosiy hujum obyektiga aylanishdi. Dastlab, 1949-yil 25-iyunda O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining byurosida Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Oybek, Mirtemir, Hamid G'ulom, Maqsud Shayxzoda kabi yozuvchilarning asarlarida millatchilik unsurlari borligi sabab qattiq tanqid ostiga olindi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 1951-yil avgust oyidagi VI plenumida esa yuqoridagilar qatorida Turob To'la, G'ofur G'ulom, Asqad Muxtor, Zulfiya kabi shoir yozuvchilar ham tanqid ostiga olindi. Shu yili "sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati"da ayblanib, Shukrullo, Shuhrat, Shahzoda, Hamid Sulaymon kabi o'z davrining mashhur yozuvchi adiblari iborat 12 kishidan iborat guruh 25 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi [7: 512-513]. Ular I.Stalin (1878 – 1953) vafotidan so'nggina 1954 – 1955-yillar oralig'ida ozod qilindilar.

Ayni davrda bu kabi qatag'onlar tarixchi-faylasuflar orasida ham keng tus ola boshladi. Misol uchun, O'z KP MQ (b) byurosining 1952-yil 27-iyundagi qarori bilan faylasuf V.Zohidov "o'z asarlarida qo'pol siyosiy va millatchilikdan iborat xatolarga yo'l qo'yganligi uchun" partiya safidan chiqarilib, O'rta Osiyo davlat universitetidagi o'qituvchiligi hamda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimligidan bo'shatib yuborilgan. [7: 516-517] Bu kabi holatlar matbuot sahifalarida keng yoritilib, millatchi olimlarga qarshi kurash kampaniyasi keng avj oldirilgan. B.Ahmedov ham katta hayajon bilan bu nohaqliklarni matbuot orqali kuzatib borgan va fakultet yig'inlarida qiziqqonlik bilan ayni qatag'onlarga o'zining salbiy fikrini ochiq bildirib borgan.

Tahlil qilinayotgan davrda, sovet hokimiyatining mafkuraviy urushi "millatchilik"dan tashqari yana bir yo'nalish – "kosmopolitizm"ga qarshi qaratildi. Mazkur atama ilmiy jihatdan tahlil qilinganda,

TARIX

aslida insonni milliy, madaniy yoki davlat chegaralaridan ustun qo'yib, insoniyatni yagona, umumiy qadriyatlarga ega bo'lgan global hamjamiyat sifatida qarashni nazarda tutuvchi g'oyaviy-falsafiy konsepsiya ekanligini ko'rish mumkin. Unda shaxs o'z milliy identikligi yoki vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechmasdan turib, inson huquqlari, erkinlik, tenglik kabi universal prinsiplarga sodiqlikni ustuvor deb hisoblaydi.

B.Ahmedovning xotirlashicha, u yuqori kursda tahsil olayotgan vaqtda uning ustozlari hisoblanmish A.Semyonov rus tarixining o'rniga Markaziy Osiyo va Eron tarixi hamda manbalarini o'rganganligi, arab paleografiyasi va fors tillarini bilganligi, M.Abduraimov SSSR tarixini emas, Amir Temur faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilganligi uchun kosmopolitizm bilan ayblashgan va ularning ishlari bir necha bor universitetning partiya yig'ilishlarda muhokama qilingan. Bo'riboy Ahmedov fakultet partiya tashkilotchisi sifatida bu olimlarga kosmopolitizmdan hech qanday aloqasi yo'q ekanligini turli komissiya majlislarida qayta-qayta ta'kidlagan. Natijada, B.Ahmedovning o'zi ham kuchli bosim ostida qoladi. Bu haqida olim quyidagicha eslaydi: *"Men bunday holatga chidolmadim, ochiqdan ochiq qarshi chiqdim. Mafkura idoralaridan birining rahbari dorilfununimizni tekshirayotgan maxsus komissiyaga bosh ekan, meni idorasiga chaqirtirib qoldi. Ishxonasida o'zidan boshqa yana uch-to'rt odam bor ekan. Shulardan birini menga VKP (b) Markaziy Qo'mitasidan kelgan mas'ul xodim deb tanishtirishdi. Qisqasi, suhbat vaqtida, "Bu – o'zbek ziyolilarini yo'q qilib tashlashga qaratilgan harakat", deb ochiq aytdim. Shundan keyin "ko'chada qoldim"* [4: 401]. Bu ham etmagandek, hamkursdoshlari va ayrim professor-o'qituvchilar uni antisemitizmga ham ochiqdan ochiq ayblay boshlashadi. *"U paytda men bu so'zning ma'nosini ham bilmas edim, – deb hikoya qiladi B.Ahmedov: – Qaysi majlisga, qaysi komissiyaga kirsam, notiqalar meni antisemit, deydi. Lug'atlarni titkiladim. Antisemit degani yahudiylarga qarshi harakat ekan. Meni nega bunda ayblashayotgan, domlalarim, masalan, A.Semyonov yahudiy, uni himoya qilayotgan bo'lsam, nimam, qayerim antisemit, deb ajablanaman"* [4: 20].

Ana shunday o'ta qaltis vaziyatli kunlarning birida universitetning o'sha paytdagi rektor, akademik Toshmuhammad Sarimsoqov (1915 – 1995) B.Ahmedovni qabuliga chaqirtirib, unga bo'layotgan bosimlarni kamaytirish va bo'lajak noxush holatlarni oldini olish maqsadida uning o'qishini Moskvaga ko'chirish taklifini beradi. Biroq B.Ahmedov bu taklifga ko'nmay Toshkentda qolishini aytadi va yakunda rahbariyat tomonidan unga Qorasuv qishlog'ida maktabga yo'llanma berildi.

O'rta Osiyo davlat universiteti Davlat imtihon Komissiyasining 1953-yil 4-iyuldagi qaroriga asosan B.Ahmedovga tarixchi-sharqshunos kvalifikatsiyasi hamda shu yilning 9-iyulida 4144-raqami bilan ro'yxatga olingan 718072-son imtiyozli diplom berilgan. Shu tariqa, B.Ahmedov 1953-yili Qorasuvga qaytib, mazkur tumandagi 1-sonli o'rta umum ta'lim maktabida tarix fanidan dars bera boshladi.

XULOSA

Bolalik va yoshlik yillari (1924–1953) Bo'riboy Ahmedov hayotining sinovlarga boy davri bo'lgan. Otasi A.Tojixojayevning siyosiy repressiyaga uchrashi oqibatida u "xalq dushmani"ning o'g'li sifatida turli bosim va qiyinchiliklarga duch kelgan. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi og'ir sinovlar hamda urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy tanglik sharoitiga qaramay, aynan shu murakkab hayot tajribalari uning irodasini chiniqtirgan, mehnatsevarlik, sabr-toqat va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlab, kelgusida etuk mutaxassis va olim sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat bermoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ишанов А.И. Книга по истории кочевых узбеков: [о монографии Б.Ахмедова] // Общественные науки в Узбекистане, 1966. – № 11. – С. 41–42; Мухаммаджанов А. Бебахо хазина // "Шарқ юлдузи" адабий-бадий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнали, 1968. – № 99. – Б. 59–62; Солиев Ю. Тарчимон Тазкирай Давлатшоҳ // Комсомоли Тоҷикистон, 1968. – 4 август. – Б. 4; Борисов О.М. Асрларни жонланттирган китоб // "Шарқ юлдузи" адабий-бадий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнали, 1978. – № 8. – Б. 3; Мадрахимов А. Шарқшунос олим // Гулистон, 1986. – № 6. – Б. 4; Али М. Ажойиб ҳодиса // Ёш ленинчи, 1989. – 15 август. – Б. 4; Бабаходжаев М., Юнусходжаева М. Жизнь, посвященная науке // Сельская правда, 1989. – 13 сентябрь. – С. 4; Юсупова Д. О прошлом с пользой для настоящего // Правда Востока, 1989. – 13 сентябрь. – С. 2; Зияев Ҳ. Манбашунос // Ўқитувчи газетаси, 1990. – 4 июль. – Б. 4.

2. Норкулов Н. Манбашунослигимиз дарғаси: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, ЎзФА мухбир аъзоси Бўрибой Аҳмедов ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994. – 30 сентябрь; Самад А. Олимнинг изтироблари ва қувончлари. – Тошкент: Камалак, 1995. – 74 б.; Норматов К. Ўтмиш ва келажак кўзуси // Ўзбекистон овози, 1999. – 26 август. – Б. 3; Хўжамбердиев Т. Қорасувдан чиққан академик // Қорасув тонги, 1999. –

12 avgust. – B. 2; Норматов К. Ўтмиш ва келажак кўзгуси (2-қисм) // Маърифат, 2004. – 7 сентябрь. – Б. 4 – 5; Али М. Забардаст олим // Халқ сўзи, 2005. – 30 апрель; Ўша муаллиф. Ўзбекистон Фанлар академияси академиги Бўрибой Аҳмедов // Халқ сўзи, 2005. – 30 апрель; Jo'rayev S. va boshqalar. Bo'riboy Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" asari asosida Amir Temur va temuriylar davriga oid manba va adabiyotlarni o'rganish // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2005. – B. 220–226.; Юсупова Д. Академик Бўрибой Аҳмедов хотирасига // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 2005. – № 1-2. – Б. 87–89.; Аҳмедов Бўрибой // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т. 1. А-Бешбалиқ / таҳрир ҳайъати: М.Аминов. – Тошкент, 2000. – Б. 560.; Академик Бўрибой Аҳмедов: некролог // Халқ сўзи, 2002. – 16 май.

3. Кулдашев Ш.Т. Некоторые сведения о жизни и творчестве Бурибая Ахмедова. // Славяно-тюркский мир на пространстве большого Алтая: история и современность. Материалы международного экспертного форума. – Барнаул: Издательство Алтайского государственного университета, 2024. – С. 149–155.

4. Самад А., Аҳмад М. Бўрибой Аҳмедов: зиёбахш умр. – Тошкент: Oltin meros press, 2024. – 548 б.

5. Самад А. Олимнинг изтироблари ва қувончлари. – Тошкент: Камалак, 1995. – 74 б.

6. Ҳўжамбердиев Т. Қорасувдан чиққан академик. // Қорасув тонги. 1999. – № 17 (256). – Б. 1-2.

7. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 687 б.

8. 000121-sonli Yetuklik attestati. / B.Ahmedov shaxsiy uy arxivi hujjatlari to'plami.

9. 0706025-raqamli mehnat daftarchasi. / B.Ahmedov shaxsiy uy arxivi hujjatlari to'plami.

10. Бўрибой Аҳмедов. / Муаллиф Г.Юсупова. // “Ўзбекистон тарихи” телеканали. 2022.
<https://www.youtube.com/@ozbekistontarixity>

11. “Shon-sharaf” davlat muzeyi rasmiy saytining statistik ma'lumotlar bo'limi: <http://war-heroes.uz/statistik-malumotlar-2/>

12. <https://tsuos.uz/institut-tarixi/>